O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

_____ B. A.Xolikov

2025-yil “__” _____

Ro‘yxatga olindi № BD-61010100-1.07

2025-yil “__” _____

AKADEMIK KO‘NIKMALAR VA KASBIY KOMPETENTLIK FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000000	- Xizmatlar
Ta’lim sohasi:	1010000	- Xizmat ko‘rsatish sohasi
Ta’lim yo‘nalishlari:	61010100	- Turizm va mehmondo‘stlik (masofaviy)

Samarqand – 2025

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
AKKK1104	2025-2026	1	4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		3

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	**Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik**	48	72	120

I.Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarda mustaqil ta’lim olish, ilmiy va kasbiy faoliyatda samarali ishlash, o‘quv jarayonida zamonaviy yondashuvlardan foydalanish, o‘z kasbiy faoliyatini rejalashtirish hamda professional kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan va ilmiy-ijodiy fikrlash, akademik yozuv, tanqidiy tahlil, axborotni izlash va qayta ishlash, jamoada ishlash va samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlashdir.

Fanning vazifalari – talabalarning ilmiy va amaliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirishdan iborat. Bunda tadqiqot metodologiyasini o‘rgatish, ilmiy izlanish olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish, ilmiy axborot manbalaridan samarali foydalanish va ularni to‘g‘ri keltirish, o‘z sohasi bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga o‘rgatish; kompetentlikni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, bunda talabalar kasbiy etikaga rioya qilish, professional madaniyatni shakllantirish, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, kasbiy muammolarni hal qilish hamda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, jamoada ishlash, yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish va muloqot madaniyatini rivojlantirish; shaxsiy va kasbiy rivojlanishga ko‘maklashishni ham asosiy vazifalardan biri sifatida belgilaydi.

2 2

Asosiy qism (amali mashg‘ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1. Kasbiy kompetentlikning mazmuni, mohiyati, o‘rganishning ahamiyati
2. Rivojlangan mamlakatlarda kasbiy kompetentlikka qo‘yiladigan talablar
3. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda individual psixologik sifatlar va ularning roli
4. Muloqot madaniyatini shakllantirishda kasbiy kompetentlikning roli
5. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish
6. Muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat motivatsiyasi
7. Rahbar shaxsi psixologiyasi va muomala madaniyati
8. Karyera. Shaxsning kasb mahoratidagi yuksalishi
9. Kasbiy faoliyatdagi konfliktlar va ularni bartaraf etish yo‘llari
10. Kasb etikasi va imidjini shakllantirish
11. Bo‘lajak mutaxassislarda kreativlikni shakllantirish yo‘nalishlari
12. Kompetentlikni takomillashtirishda qobiliyatning o‘rni
13. Tadqiqot muammo va vaziyatlarni fahmlash, ularning paydo o‘lishini aniqlash, xususiyatlari va mazmunini ochib berish, universal hal qilish yo‘llari va vositalarini topishdan iborat faoliyat turi sifatida.
14. Tadqiqotining maqsadlari, vazifalari, obyekti va predmeti.
15. Menejmentda empirik tadqiqot usullari.
16. Rasmiy-mantiqiy tadqiqot usullari va Tadqiqot metodologiyasi
17. Tadqiqot jarayonida dalillar bilan ishlash bosqichlari.
18. Ilmiy tadqiqot turlari.
19. Aniq (maxsus) tadqiqot usullari tadqiqot ob’ektining o‘ziga xosligi, predmeti va vazifalarini aks ettiruvchi usullar sifatida.
20. Aqliy hujum usuli, Delfi usuli va Maqsadlar daraxti usuli.
21. Tadqiqot dasturini shakllantirish .
22. Tadqiqot maqsadlarini turkumlash .
23. Tadqiqotning texnologik sxemasi.

3

24. Menejmentda tadqiqotlar samaradorligini ta'minlash prinsiplari.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Oliy ta'lim tizimida akademik yozuv madaniyati va uning xalqaro standartlari
2. Kasbiy kompetentlik va yumshoq ko'nikmalar (soft skills) o'zaro bog'liqligi
3. Zamonaviy mehnat bozorida mutaxassisning raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillar
4. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi va uning kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati
5. Axborot texnologiyalarining akademik va kasbiy faoliyatdagi o'rni
6. Shaxsiy va kasbiy rivojlanishda o'z-o'zini boshqarish va refleksiya madaniyati
7. Ilmiy texnik muammo (masala), uni aniqlash, o'rganish vayechimi bo'yicha ilmiy gipotezani shakllantirish.
8. 9 Ilmiy tadqiqotlar olib borishning asosiy usullari va 10 Ilmiy tadqiqot ishlarida modellashtirish.
9. Empirik tadqiqot usullari.
10. Tadqiqot jarayonida dalillar bilan ishlash bosqichlari.
11. Amaliy va nazariy tadqiqotlar.
12. Mavzuning dolzarbligi va zaruratini asoslash;
13. Mavzuga oid manbalarni sharhlash va o'rganilganlik darajasini baholash;
14. Tadqiqotning maqsad va vazifalarini shakllantirish;
15. Ilmiy maqolalarni IMRAD uslubida rasmiylashtirish.

IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

3 Akademik yozuv madaniyati, ilmiy matn tuzish va manbalarni to'g'ri keltirish qoidalari, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va asosiy metodlar haqida nazariy tushunchalar, plagiat tushunchasi va undan himoyalanish usullari,

mutaxassislikka oid asosiy bilimlarni mehnat bozorida qo'llash yo'llari, kasbiy etikaga oid nazariy tushunchalar va professional odob-axloq me'yorlari usullarini bilishi lozim. **(bilim)**

Tadqiqot usullari fanining ahamiyati va vazifalari to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi; tadqiqot usullari fanining predmeti, metodi va obyekti to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi; tadqiqot usullari fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi bilishi; tadqiqot olib borishning tayyorgarlik ko'rish bosqichlari bilishi; tadqiqot olib borish muolajalarining usul va uslubiyoti to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi; tadqiqotning tarkibiy tuzilishi o'rganishi; tadqiqotning ma'lumotlar bazasini yaratishni o'ganishi; tadqiqot dasturini tuzishga qo'yilgan talablarni bilishi kabi ko'nikmasini hosil qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishga yo'naltirish bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lishi; **(ko'nikma)**

Kasbiy faoliyat jihatidan esa, ular o'z mutaxassisligi bo'yicha olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, kasbiy muammolarni tahlil qilish va ularga samarali yechim ishlab chiqish. Axborot va raqamli texnologiyalar yo'nalishida esa talabalar elektron ma'lumotlar bazalari va onlayn platformalardan samarali foydalanish, axborotni qayta ishlash va raqamli vositalardan ta'lim hamda kasbiy faoliyatda foydalanish, IT vositalari yordamida taqdimot, tahliliy material va hisobotlar tayyorlash malakalariga ega bo'ladilar; ***ko'nikmalariga ega bo'lishi.*** **(malaka)**

V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

4
- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyilalar;
- loyiha tahlili;
- misol va masalalar;

	•jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	**VI. Kreditlarni olish uchun talablar:** Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.
6	**Asosiy adabiyotlar** 1. Ochilova G.O., Akbarova S.Sh. Kasbiy kompetentlik. (Darslik). - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 324 bet. 2. Muslimov N.A., Ishmuhamedov R.J., To‘rayev A.B. “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” moduli bo‘yicha o ‘quv-uslubiy majmua. - T., 2 0 2 1 .- 108 b. 3. A. Rajabov Ilmiy tadqiqot asoslari. O’quv qo’llanma. - Toshkent, 2012 - y. 208 b. 4. D.Rasulova., I.Xotamov., X.Asatullayev. Biznesni tadqiq etish usullari.Ma’ruza matni. - Toshkent, 2018 - y. 179 b. **Qo‘shimcha adabiyotlar** 5. Yo‘ldoshev N.Q. Rashidov J.X. Menejmentning tadqiqot usullari. Darslik. - Toshkent, 2020 - y. 163 b. 6. Umumiy pedagogjka. Qism I: darslik / O.Musurmonova [va boshq.]. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 376 b. 7. R.S. Muratov, I.A. Djalalova, S.Sh. Oripov. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. 8. Турковский М. Маркетинг гостиничных услуг: учеб.-метод. пособ.: пер. с польск. – М.: ФиС, 2014. – 296 с. **Axborot manbaalari** 9. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali. 10. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 11. www.ziyonet.uz – ta’lim portali 12.www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo`mitasi sayti 13. https://oxfordtax.sbs.ox.ac.uk/sitefiles/wp2402-delaferia.pdf?utm_source 14. https://ira.lib.polyu.edu.hk/handle/10397/84902?utm_source
7	Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025-yil “____” _____ dagi “____”-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8	**Fan/modul uchun mas’ullar:** Sh. Berdiyorov - SamDCHTI, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi.
9	**Taqrizchilar:** **S.A.Abduhamidov** – SamISI “Turizm” kafedrasi mudiri, dotsent **F.R. Xalimova** – SamDChTI, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi v.b. professori, DSc.